YOZUV VA UNING TARIXIY TARAQQIYOTI

Qobiljonova Muslima
Andijon Davlat Chet Tillar Instituti
Arab tili filologiyasi yo‘nalishi, talaba
Fan: Tilshunoslikka kirish
https://doi.org/10.5281/zenodo.24275320

ANNOTATSIYA

Maqolada yozuvning paydo bo‘lishi, jamiyat hayotidagi o‘rni va taraqqiyot bosqichlari yoritilgan. Piktografik, ideografik (logografik), ieroglifik va fonetik yozuv turlari, ularning o‘ziga xos jihatlari hamda bir-biridan farqi tahlil qilingan. Alifbo yozuvining shakllanishi ko‘rsatib berilgan.

Kalit so‘zlar: yozuv, piktografik yozuv, logografik yozuv, ieroglif, mix yozuv, fonetik yozuv, alifbo.

АННОТАЦИЯ

В статье освещаются возникновение письменности, её роль в жизни общества и этапы развития. Анализируются пиктографическое, идеографическое (логографическое), иероглифическое и фонетическое письмо, их особенности и отличия друг от друга. Показано формирование алфавитного письма.

Ключевые слова: письменность, пиктографическое письмо, логографическое письмо, иероглиф, клинопись, фонетическое письмо, алфавит.

ANNOTATION

The article describes the origin of writing, its role in society and the stages of its development. Pictographic, ideographic (logographic), hieroglyphic and phonetic writing systems, their distinctive features and differences are analysed. The formation of alphabetic writing is also shown.

Keywords: writing, pictographic writing, logographic writing, hieroglyph, cuneiform, phonetic writing, alphabet.

Kirish

Til insonlar o‘rtasidagi aloqaning eng muhim vositasi bo‘lib, uning barcha imkoniyatlari nutqda namoyon bo‘ladi. Nutq og‘zaki va yozma shaklda mavjud: og‘zaki nutq tovushlar orqali, yozma nutq esa yozuv orqali ifodalanadi. Yozuv ma’lum bir tarixiy jarayon natijasida shakllangan va odamlar o‘rtasida bilvosita aloqa o‘rnatish vositasi sifatida jamiyat manfaatlariga xizmat qiladi.

Yozuvning tarixiy ahamiyati

- yozuv kishilar o‘rtasida bilvosita muloqot vositasi bo‘lib xizmat qiladi;
- insoniyat erishgan barcha ma’naviy yutuqlar yozuv orqali avloddan avlodga yetkaziladi;
- yozuv uchun masofa va vaqt ahamiyatsiz, u turli masofadagi axborotni umumiy ma’lumotga aylantiradi;
- yozuv jamiyat taraqqiyoti bosqichlarini, xalq tarixi va etnografiyasini, adabiyot va san’at tarixini, tilning tarixiy taraqqiyotini o‘rganishda muhim ahamiyat kasb etadi. Yozuvsiz tilning va xalqning tadrijiy taraqqiyotini o‘rganib bo‘lmaydi.

Dunyodagi aksariyat tillar o‘z yozuviga ega. Yozuvning hozirgi ko‘rinishlari dastlabki shakllarning takomillashib borishi natijasida paydo bo‘lgan. Fanda piktografik, logografik, ieroglifik va fonografik kabi yozuv turlari farqlanadi.

Piktografik yozuv

Voqea-hodisalar haqidagi ma’lumotlar jonli va jonsiz narsalarning tasviri orqali ifodalangan yozuv piktografik yozuv hisoblanadi. Bu atama “chizilgan” va “yozaman” ma’nosidagi so‘zlardan tuzilgan. Yozuvning bu turi ma’lumotning dastlabki qaydlarini yetkaza oladi, biroq mavhum tushunchalarni ifodalash imkoniyatiga ega emas.

Ideografik (logografik) yozuv

Piktografik yozuvning takomillashishi natijasida ideografik (yunoncha “idea” – tushuncha, “grafo” – yozaman) yozuv paydo bo‘ldi. U logografik yozuv deb ham yuritiladi (“logos” – so‘z). Bunday yozuvdagi ramzlar narsa-buyumni aks ettirib qolmay, tildagi so‘zlarni ham ifodalaydi. Logografik yozuvning afzalliklari: u xabar qilinishi lozim bo‘lgan mazmunni mufassalroq aks ettiradi; unda so‘z tartibi va so‘z shakllari aniq bo‘ladi; u subyektivlik va ixtiyoriylikka yo‘l qo‘ymaydi, chunki barqaror logogrammalardan tashkil topgan.

Ieroglifik yozuv

Logografik yozuvning bir oz mukammallashgan shakli ieroglifik yozuvdir. “Ieroglif” so‘zi yunoncha bo‘lib, “muqaddas yozuv” degan ma’noni anglatadi. Ushbu yozuv, ayniqsa qadimgi Misrda keng qo‘llangan. U ifodalanayotgan narsaning xususiyatlarini imkon qadar aks ettiradi va mavhum tushunchalarni ifodalay olishi bilan o‘zidan oldingi yozuvlardan farqlanadi.

Yozuvni soddalashtirish yo‘llari

Yuqoridagi yozuv turlari ancha murakkab bo‘lib, fikr va ma’lumot ifodalash imkoniyati tor edi. Shu sababli yozuvni oson va qulay shaklga keltirish ehtiyoji tug‘ildi. Bunga uch yo‘l bilan erishildi: birinchidan, tushunchani yangi shakl bilan berish o‘rniga mavjud logogrammalar yoki ierogliflar majmuasi orqali ifodalash; ikkinchidan, so‘zlarning grammatik shakllariga tayanish, ya’ni logogrammalarni o‘zak sifatida saqlab, grammatik ma’nolar uchun yangi logogrammalar o‘ylab topish; uchinchidan, eng unumli va ma’qul usul bo‘lgan fonografik yozuvga o‘tish.

Fonetik yozuv

Fonetik yozuv tilning grammatik qurilishini ifodalab qolmay, so‘zning tovush tarkibini ham aks ettiradi. Uning bir necha ko‘rinishi bor. Ulardan biri bo‘g‘in yozuvi bo‘lib, unda bir belgi bir tovushni, bir bo‘g‘inni yoki bir so‘zni ifodalagan. Ossuriya va Vavilon mix (qoziq) yozuvi ana shunday yozuvlardan hisoblanadi. Eronliklar Vavilonni bosib olgach, shu yozuvdan foydalanib, har bir belgi bir tovushni bildiradigan fonetik yozuvni ixtiro etganlar. Dunyodagi aksar tillarning fonetik yozuvini ifodalovchi alifbolar finikiyaliklar yozuvi asosida shakllangan.

Xulosa

Yozuv insoniyat taraqqiyotining eng buyuk yutuqlaridan biridir. U piktografik yozuvdan boshlab, logografik, ieroglifik va bo‘g‘in yozuvi bosqichlaridan o‘tib, tovushni ifodalovchi alifboga kelgan. Yozuv takomillashgan sari fikr ifodalash imkoniyati kengayib, madaniy va ma’naviy meros avlodlarga yetkazilgan.

Foydalanilgan adabiyot

1. Xolmanova Z. Tilshunoslikka kirish. – Toshkent: ziyouz.com kutubxonasi, 85–88-betlar.
2. Bobojonova Sh. Muloqot va uning pragmatik tahlili. – 2024.
3. Matkarimova F., Matkarimova O. O‘zbek va ingliz tillarida rasmiy xatlarning lingvopragmatik xususiyati. – Central Asian Journal of Academic Research, 2025.